

**TALABALARNING AMALIYOTGA TAYORLIGINING IJTIMOIIY-  
PSIXOLOGIK O`ZIGA XOSLIGI**

*Allamberganova Nabira*

*Nukus Davlat Pedagogika instituti,*

*Pedagogika psixologiya yo`nalishi,*

*2-kurs magistranti*

*narabekimbetova@gmail.ru*

**ANNOTASIYA**

Talabalarning kasbiy jihattan amaliyotga tayorligi, talabalikdan mutaxassisga aylanishi murakkab, ko'p darajali va ko'rinishli tizimli psixik shaklga ega bo'lib, birinchi navbatda odamning shaxsiy ko'rinishi asosiy o'rin egallaydi. Shu bilan birga, kasbiy tayorgarlik bo'lajak mutaxassisda kerakli darajada jismoniy sog'likni kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi. Chunki har qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch va jismoniy energiya sarflashini ko'zda tutadi.

**Kalit so'zlar:** Talaba, jamoa, amaliyot, kasbiy moslik, psixologik muhit, suhbat, kasb, faoliyat.

**ANNOTATION**

The professional readiness of students to practice has a complex multi-level and visible system-psychic form, in the first place the personal appearance of a person takes the main place. At the same time, professional training requires that the necessary level of physical health in a specialist is formed and developed physical qualities necessary for professional activity. Because any professional activity presupposes that a person spends some physical energy on some kind of power.

**Keywords:** student, team, practice, interpersonal, psychological environment, conversation, profession, activity.

**1. KIRISH.** Mashhur rus psixologi K.K.Platonov bo`lajak mutaxassis talabani kasbiy tayyorligi bu o`zining o`ziga xos muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va tayyorgarlik ko`rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub'ektiv holatidir – deb hisoblangan. Talabalarning kasbiy jihatdan amaliyotga tayyorligi, talabalikdan mutaxassisga aylanishi murakkab, ko`p darajali va ko`rinishli tizimli psixik shaklga ega bo`lib, birinchi navbatda odamning shaxsiy ko`rinishi asosiy o`rin egallaydi. Shu bilan birga, kasbiy tayyorgarlik bo`lajak mutaxassisda kerakli darajada jismoniy sog`likni kasbiy faoliyat uchun zarur bo`lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi. Chunki har qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch va jismoniy energiya sarflashini ko`zda tutadi.

**2. METODOLOGIYA.** Bo`lajak mutaxassisning yangi talabani amaliyotga kasbiy tayyorgarligida ikkita o`ziga xos o`zaro bog`liq bo`lgan tomonlarni ko`rsatish maqsadga muvofiq. Bu o`zaro bog`liq tomonlar psixologlar M.I.D'yachenko va A.M.Stolyarenkolar tomonidan ishlab chiqilgan bo`lib ular quyidagilardan iborat;

1.Shaxsning kasbiy jihatdan amaliy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorligi deganda - mutaxassisning bu tayyorligi quyidagilardan iborat bo`ladi, ya'ni, static komponentlar amaliy kasbiy faoliyatning psixik asoslari, bilim, ko`nikma, malakalar kasb uchun muhim hisoblangan, shaxsning sifatleri uning munosabati, mazmun va qadriyatleri, afzalliklari hamda umuman shaxsning zarur bo`lgan kasbiy imkoniyatlari darajasi;

2.Shaxsning kasbiy jihatdan amaliy faoliyatga bevosita ayni vaqtdagi tayyorligi.

Bo`lajak mutaxassisning kasbiy jihatdan amaliy tayyorligining ushbu tomoni tezkorligi, o`zgaruvchanligi, har qanday holat va sharoitda aniq masalalarni yechish, mutaxassisning ruhiy va jismoniy holati, jamoadagi ma'naviy psixologik muhitga bog`liqligi bilan ifodalanadi.

**3. MUHOKAMA.** Bo`lajak mutaxassis bo`lmish hozirgi talabani bevosita psixologik tayyorgarligi dastlabki o`ziga xos tayyorgarlikni faollashtirish natijasi

sifatida ishtirok etadi. Mutaxassisning kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorligi bevosita ayni vaqtdagi tayyorligining asosi hisoblanadi. Shuning uchun mutaxassisni oliy o'quv yurtida tayyorlash unda kasbiy faoliyat uchun yetarli bo'lgan sifatlarni shakllantirish lozim. Ba'zi vaqtlarda hatto kasbiy masalalarni hal etishga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan mutaxassis ham zarur paytda kerakli faoliyat uchun tayyor bo'lmay qolishi mumkin, ya'ni kasbiy xulqi va faoliyatini ruhiy boshqarish yetarli darajada bo'lmaydi. Bunday holatda faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi yoki samarasiz bo'ladi.

**4. NATIJALAR.** Ko'rinib turibdiki, talaba ya'niy bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorligi unda kasbiy bilimdonlikni kerakli darajasini kasbiy mahoratini hamda o'zini boshqarish, o'zini kerakli faoliyatga yo'naltirishga, o'zining kasbiy (ma'naviy shaxsiy va jismoniy) imkoniyatlarini hal etishga yo'naltira bilish qobiliyati mavjudligini nazarda tutadi.

Bo'lajak mutaxassis bo'lmish hozirgi talabaning kasbiy tayyorligining asosiy va eng murakkab o'ziga xos tomoni (psixologik tomonlari) - bo'lajak mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi. Bu mutaxassis psixikasi ruhiy kuchlarining kasbiy masalalarni hal etishga o'zining vazifalarini bajarishga tayyorligi va yo'nalganligi darajasidir. darajasi tushuniladi.

Bo'lajak mutaxassis bo'lmish hozirgi talabaning bunday o'zini tashkil etishi ko'p jihatdan uning muvaffaqiyatga erishish istagiga va intilishiga bog'liq bo'ladi. Zamonaviy psixologiyada muvaffaqiyat muammosiga bag'ishlangan ko'plab ishlar mavjud bo'lib, ularda mazkur muammo amaliy va nazariy jihatdan o'rganilgan.

Muvaffaqiyat deganda shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishi tushuniladi. Odamning bajarayotgan ishini muvaffaqiyatlilikini his etishi ikkita hal etuvchi vaziyatlarga bog'liq bo'ladi: haqiqiy natija va ushbu vaziyatlarda uning qiziqishlari darajasiga. Ular odam o'z faoliyatida qo'ygan maqsadlarini ifoda etish shakli sifatida ishtirok etadi.

**5. XULOSA.** Xulosa o'rnida talabaning o'zlashtirgan amaliy bilimlarini amaliy jihatdan muvaffaqiyatli qo'llana olishi, ish jarayonidagi o'ziga xos

faktorlarga muvofiq muvaffaqiyatga erishishning vositalari, shart-sharoitlari ishlab chiqilgan bo'lib u quyidagi formula asosida beriladi.

natija

Muvaffaqiyat = -----

qiziqishlar darajasi

Ko'rinib turibdiki, bir xil natija bo'lganda ham muvaffaqiyat turlicha bo'lishi mumkin (masalan yuqori, o'rta, past) yoki u umuman bo'lmasligi ham mumkin. Bu odam o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga bog'liq bo'ladi, va aksincha shaxsning qiziqishlar darajasi bir xil bo'lganda muvaffaqiyat faoliyat natijasiga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Kasbiy faoliyat jarayonida amaliyotchilar muvaffaqiyatga erishishda mutaxassisning shaxsiy xususiyatlari o'ziga xos muhim rol' o'ynadi. Hayotiy muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'plab shaxsiy sifatlar haqida V.Kroford o'zining “Suhbat va munozara” kitobida Konfutsiyning g'oyasiga tayanib, do'stonalik, donolik va botirlikni ko'rsatadi. Muallif odamga ishida muvaffaqiyat erishish uchun nima yetishmasligini aniqlash uchun qiziqarli metodikani ishlab chiqdi. V.Kroford hozirgi zamon mutaxassisi muvaffaqiyatga erishish uchun ko'rsatilgan tushunchadan tashqari kasbiy mahorat ham kerakligini aytib o'tdi.

Hozirgi zamonaviy tadqiqotlar muvaffaqiyatga erishish uchun quyidagi asosiy shart-sharoitlarni ko'rsatadi:

- amaliyotchi talaba o'ziga ishongan bo'lishi kerak;
- maqsadga erishishga kuchli intilish kerak;
- nimaga erishish istagini aniq bilishi kerak;
- ishga pozitiv yo'nalganlik;
- omad alohida muvaffaqiyatlarni ko'ra bilish va shu paytda quvonch va baxtni his etish zarur.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra odamning hayoti va kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik borligini ko'rsatadi. Yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarini amaliy-kasblar konstruktivi mutaxassisligini kiritish bilan bartaraf etish mumkin. Ular yangi kasblarni loyihalashtirish, mehnat mazmunini va maqsadini aniqlash, ma'lumot, malaka darajasi mehnat sharoiti masalalarini yangilanishlari mumkin edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar (REFERENCES) :**

1. Qodirov B.R., Qodirov I.B. “Kasbiy tashxis metodikalari to`plami”Toshkent, 2003 yil
2. Gafarov A.Z. “Pedagogik amaliyot” Toshkent 2002 yil
3. Z.Ibodullaev. Tibbiy psixologiyasi. T., 2008 yil darslik.
4. P.I.Ivanov va M.Zufarova Umumiy psixologiya. T., 2008 yil darslik.
5. Z.Nishonova va Sh.Asomiddinova. Psixologik maslahat.T. 2010 yil
6. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. Toshkent 2010
7. Kondakov I.M. “Diagnostika professionalno`x ustanovokpodrostkov” 1997y.